

INNOVATSIYA TARAQQIYOT ASOSI

D.Bayzakova

Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsenti v.b.

A.Xabibullayev

Kybersport fakulteti, 502-24 BH guruhi talabasi

Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o‘shish samaradorligini ta‘minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. Yangi iste‘molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni yetkazib berish – innovatsiyaga misol bo‘la oladi.

Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o‘rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o‘rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”), “in” qo‘shimchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo‘lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo‘ldi.

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo‘llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi

Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi

Ilm-fan – bu ma‘lum mablag‘larni bilimlar va g‘oyalarga aylantirish.

Innovatsiyalar – bu bilimlar va g‘oyalarni mablag‘larga aylantirishdir.

Ixtiro – bu yangi konsepsiyani yaratish demak.
Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Innovatsiyaning 10 ta amri

1. Maqsadingizni ifodalang.
2. Jamoangizni ilhomlantiring.
3. Diqqatingizni xaridorga qarating.
4. Har kimga o'xshamang.
5. Hamma narsani shubha g'alviridan o'tkazib ko'ring.
6. Sinergiya(O'zaro munosabat) yarating.
7. Jarayonni yarating.
8. Har qanday xatarni oldindan ko'ra biling.
9. O'zgarishlarning yetakchisiga aylaning.
10. Tashabbuskor bo'ling.

Jahon tajribasidan "Yevropa innovatsion paradoksi" deb ataladigan tushunchani ham ta'kidlash kerak - bir tomondan, ta'lim va ilm-fanga kiritiladigan investitsiyalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini baholaganda, shuningdek, Evropa Ittifoqining aksariyat mamlakatlarida aholi sonidagi oliy ma'lumotli odamlarning foizi, AQSh yoki Yaponiyadan ham yaxshiroq. Yevropa ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari bo'yicha ham ulardan ustundir (masalan, Nobel mukofoti sovrindorlari, SCI nashrlari, doktorlik ilmiy darajasiga ega olimlar soni). Shunga qaramay, Evropa Ittifoqida iqtisodiyotning unumdorligi AQShnikiga qaraganda ikki baravar past, uning AQSh bilan savdo balansi salbiy. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan talabalar AQSH oliy ta'lim muassasalarida o'qishga harakat qilmoqda. Qo'shma Shtatlarning o'zi innovatsiyalardan foydalanishda juda muvaffaqiyatli mamlakat hisoblanadi, nafaqat o'z mamlakatida yaratilgan, balki butun dunyoda yaratilgan bilimlarni tijoratlashtiradi. Oliy ta'lim va tadqiqot sohasidagi eng yaxshi mutaxassislar (loyiha menejerlari, tadqiqotchilar, oliy ma'lumotli texnologiya mutaxassislari) AQShga ko'chib ketishadi. Evropa AQSh korxonalarida malaka oshirish va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun pul tikmoqda. Shu va shunga o'xshash faktlarga ko'ra, "Yevropa innovatsion paradoksi" atamasi ham paydo bo'ldi. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, innovatsiyalar asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Shunday qilib, innovatsiyalar raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatini beradi. So'nggi yillarda buni nafaqat iqtisodchilar, balki siyosatchilar ham tushunishmoqda. Asosiy maqsadlarga erishish uchun yalpi ichki mahsulotning 3 foizini ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish, bandlik darajasini 70 foizga yetkasish, byurokrtiyani qisqartirish,

korruptsiyani yo‘qotish va tadbirkorlikni rag‘batlantirishni amalga oshirish kerak. Bu muammolar hal etilsa, mamlakatimizda iqtisodiyotimiz innovatsion jihatdan rivojlanishda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Ilmiytadqiqot va innovatsiyalar uchun davlat byudjetlaridan mablag' ajratish va uni ta'minlash hajmini oshirish nazarda tutilgan. Xususan, uchta asosiy yo‘nalish ustuvorlik kasb etadi:

- ta'limga va intellektual mulkni shakllantirish va ko‘paytirishga sarmoya kiritish;
- sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlikni kuchaytirish;
- mehnat bozorida monomarkazlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.F.Ergashev, D. Raximova, A. Sagdullaev, O.Parpiev, Sh. Zaynutdinov — Innovatsion menejment. Darslik. Toshkent , —Akademiyal. 2010.
- 2.Yo‘ldoshev N.Q. va boshqalar. —Innovatsion menejment. Darslik. T.:TDIU, 2012.
- 3.Akbarxodjaev Z.Z. —Innovatsion menejment. O‘quv-uslubiy majmua.- T.:TDIU, 2012.
4. Фатхудинов Р.А. «Иновационный менеджмент» Учебник. 5-е изд. — Спб. Питер, 2005.
5. Yo‘ldoshev N.Q. va boshqalar. “Innovatsion menejment”. Darslik. TDIU.